

## OZOD SHARAFIDDINOV IJODIDA CHO‘LPON.

*Jizzax viloyati Jizzax shahar Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi tarbiyachi pedagogi*

*Muxtorova Aziza Rashitovna.*

**Annotatsiya:** Mustaqillikka erishganimizdan keyin qatag‘on davri qurboniga aylangan, yo‘qlikka mahkum etilgan, ijodkorlar hayoti va ijodi qayta o‘rganilib, nomlari oqlanib maktab darsliklari va oliy ta’lim muassasalari qo‘llanmalaridan ijod namunalari bilan joy ola boshladilar. Shunday ijodkorlardan biri, XX asr o‘zbek adabiyotining yo‘lchi yulduzi Cho‘lpon edi. Inqilobchi, badbin ziyolilar shoiri degan ayblovlar bilan qatag‘on qurboniga aylangan adib ijodini mustaqillik yillarida ommaga tanitishda O.Sharafiddinov, M.Qo‘shjonov, D.Quronov kabi adabiyotshunos olimlar o‘z hissalarini qo‘shdilar. Ushbu maqolamizda adib ijodini adabiyotshunos olim, tanqidchi O.Sharafiddinov asarlari misolida yoritib berishga harakat qilamiz.

**Kalit so‘zlar:** Tirik satrlar, Bu o‘lkaning ko‘klami, Ozod Sharafiddinov, Adabiyot yashasa-millat yashar, Adabiyot nadur?, “Xazina” ijodiy uyushmasi.

### **Cholpon in the works of Ozod Sharafiddinov.**

**Annotation:** After gaining independence, the lives and works of writers who were victims of repression, condemned to non-existence, were reorganized, their names were justified and began to appear in school and university textbooks. One of such creators was Cholpon, a traveling star of Uzbek literature of the 20th century. We will try to illuminate the work of the writer on the example of the works of literary scholar, critic O. Sharafiddinov.

**Keywords:** Living lines, The blue of this country, Azod Sharafiddinov, If literature lives-the nation lives, Khazina creative association.

### **Чолпон в творчестве Озода Шарафиддинова.**

**Аннотация:** После обретения независимости жизнь и творчество писателей, ставших жертвами репрессий, осужденных на небытие, были реорганизованы, их

имена были оправданы и стали фигурировать в школьных и вузовских учебниках. Одним из таких творцов был Чолпон, путешествующая звезда узбекской литературы XX века. Попробуем осветить творчество писателя на примере произведений литературоведа, критика О.Шарафиддинова.

**Ключевые слова:** Живые строки, Голубизна этой страны, Азод Шарафиддинов, Живет литература-живет нация, творческое объединение “Хазина”.

Har bir davrning madaniyati, adabiyoti va san’atida o‘chmas iz qoldirgan buyuk siymolari, fan arboblari, adabiyot ilmining yetuk ijodkorlari, shoir va yozuvchilari bo‘lganidek, XX asr o‘zbek adabiyotining taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shgan shunday ijodkorlar borki, ular haqida qanchadan qancha asarlar yozilgan bo‘lsada, yana shu sohaga qo‘l urgingiz, ijodkor ruhiyatiga chuqur kirib borgingiz, o‘sha davr qahramonlari bilan hamnafas bo‘lgingiz keladi. Ana shunday fidoiy ijodkorlardan biri, adabiyotimizning yo‘lchi yulduzi Cho‘lpondir. Cho‘lpon Andijon shahrining Qatortarak mahallasida savdogar oilasida dunyoga keldi. Avval eski maktabda, vaqti yetgach Andijon va Toshkent madrasalarida tahsil ko‘rdi. Bo‘lajak shoir muntazam shug‘ullanishi va tabiiy iste‘dod tufayli o‘zbek, turk, fors, arab va rus tillarini va bu tillardagi adabiyotlarni puxta biladigan o‘qimishli kishi bo‘lib yetishdi. Shu kuchli iste‘dod tufayli Abdulhamid o‘n olti yoshlarga yetib- yetmay ijod qila boshladi.

Adabiyotshunos olim Esong‘ali Ravshanov “ Cho‘lpon ” nomli ma’rifiy romanida adibning adabiyotga bo‘lgan muhabbatining ortishiga va jadidchilikka kirib kelishiga quyidagicha izoh beradi:

“Cho‘lpon o‘zi haqida yoza turib shunday deydi: Madrasada o‘qib yurgan kezlrimda bir turk bilan tanishdim. U Qur’onni boshdan-oyoq yod biladigan, g‘oyat savodxon kishi edi. Keyin bilsam, Istanbuldagi panturkistlar uyushmasi tomonidan u Sharqiy Turkistonga umumturk g‘oyalarini targ‘ib qilish uchun yuborilgan

ekan. Gazeta-jurnallarni mutolaa qilishni o‘shandan o‘rgandim. Madrasadagi saboqlar bir chekkada qolib ketdi. Bir yo‘la adabiyotga yuz burdim”. [4;10-s]<sup>1</sup>.

Aynan o‘n olti yoshida, 1914- yilning 4-iyunida “Sadoi Turkiston” gazetasida birinchi tanqidiy ruhdagi asari “Adabiyot nadur?” maqolasi e‘lon qilinadi. Maqola hajman kichikroq bo‘lsada, mazmuni g‘oyat teran edi. Maqolada Cho‘lpon adabiyotni quruq g‘oyalar majmuasi emas, balki, birinchi navbatda, inson ruhiyati bilan bog‘liq hodisa deb tushuntiradi va adabiyotga shunday ta‘rif beradi: “Adabiyot chin ma‘nosi ila o‘lgan, so‘ngan qaralgan, o‘chgan majruh, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurgan, o‘tkir yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma‘rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladurgan, chang va tuproqlar to‘lgan ko‘zlarimizni artib tozalaydurg‘on buloq suvi bo‘lganlikdan bizga g‘oyat kerakdur”. [8.35-b]<sup>2</sup>.

Shu kabi maqolalarida Cho‘lpon adabiyotni odamlarning shuurigagina emas, his – tuyg‘ulariga ham ta‘sir etishi, ularni quvontirib yoxud mahzun ahvolga solib, shu orqali ijtimoiy burchini o‘tashi zarur deb ta‘kidlaydi, bundan tashqari, adabiyotning takomillashishiga katta e‘tibor berib, bunga “adabiyotga kira olmagan narsalarni shafqatsiz suratda maydondan haydash” bilan va “badiiy asar tilini soddalashtirish orqali erishilar”, deb hisoblaydi. Adibning adabiyotga doir qarashlarini o‘rganar ekanmiz, bir maqolani yoritmasdan, chetlab o‘tishning ilojini topa olmaymiz. Bu “Ulug‘ hindi” degan maqola bo‘lib, “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalining 1925-yil 7-8- qo‘shma sonida chop etilgan. Bu maqola bir qarashda buyuk hind shoiri Tagor siymosini yoritishga bag‘ishlanganday ko‘rinadi. Biroq adibimiz Tagor bahonasida o‘zbek adabiyotining qay yo‘ldan borishi haqida mulohazalarini bayon qiladi. Cho‘lpon bu maqolasida faqat o‘zbek adabiyoti yoxud o‘zbek yozuvchilarinigina emas, balki 20-asr boshlarida adabiyotga kirib kelgan Sharq yoshlarini ham “yo‘lsizlik” kasaliga chalingan deya takidlaydi. Maqolada adibning o‘zini ham yo‘lsizlar qatoriga kiritganiga guvoh bo‘lamiz: “O‘zimning yo‘lsizligimdan biroz so‘zlab o‘tayin: Navoiy, Lutfiy, Mashrab, Furqat, Muqumiylarni o‘qiyman: bir xil, bir xil, bir xil... Ko‘ngil boshqa narsa qidiradir. Botu, Oltoy, Oybek,

Julqunboylarni o‘qiyman: quvontiradur, xolos! Ular mening uchun yong‘on chiroqlar bo‘lsa ham, mening ertam uchun! Avloniy, Tavallo, Siddiqiy va Hakimzodalarni o‘qimayman, o‘qimayman. Mana shu holga solg‘on o‘shalar! [7;65-b]<sup>3</sup>. Bu parchada adib o‘zbek namoyondalarining nomlarini tilga olyapti, ularning ijodida bir xillik borligidan, ba’zilarida jiddiy nuqsonlar borligidan zorlanayapti. Bizningcha Cho‘lpon bu yerda biroz xatolikka yo‘l qo‘ygan, chunki Navoiy o‘z davrida Cho‘lpon tilga olgan yangi adabiyot uchun poydevor qurgan, aruz ilmini yoritgan, adabiyotga chetda qolgan iste’dod sohiblarini olib kirgan, ularning asarlari bilan kitobxonni tanishtirgan. Bizning fikrimizcha, Cho‘lpon Navoiy ijodini ko‘proq diniy, tasavvufiy yo‘nalishda bo‘lganligi uchun shu fikrni bildirgan. O‘sha davr adabiy muhiti shu mavzudagi asarlar yaratishni taqozo etganligi tufayli biz Navoiy ijodini bir xillik deya ayblay olmaymiz.

1920 -1927- yillarda adib ijodi gullab –yashnadi, tanqidiy maqolalar bilan birga, lirikada ham salmoqli ijod qildi. “Uyg‘onish”, “Tong sirlari”, “Buloqlar” nomli she’riy to‘plamlari e‘lon qilindi.

Bu to‘plamlar e‘lon qilinganidan keyin matbuotda Cho‘lponga iliq fikr bildirgan olimlardan biri, munaqqid Vadud Mahmud “Buloqlar” to‘plamiga yozgan taqrizida shunday yozadi: “Bu kun o‘zbek adabiyotiga yana bir to‘n kiygizildi: Cho‘lponning “Buloqlar” otliq yangi bir she‘rlar to‘plami bosilib chiqdi. Cho‘lpon o‘zbekning yangi shoiridir, shuning uchun o‘zbek elining bu kungi ruhi holi, sezgisi “Buloqlar” da sayraydir, o‘quydir. O‘zbek yangi shoirlarining ohangsiz bo‘lishini uyalmayin so‘ylayturg‘on og‘izlarga “Buloqlar” tufuradur, til tegdirmakchi bo‘lg‘on mashhur “nodonlar” ga bu “Buloqlar” kuladur”- deya etirof etadi. [5;6-s]<sup>4</sup>.

1924-yilda “Zarafshon” gazetasining ikki sonida “O‘zbek yosh shoirlari. Cho‘lpon” degan maqola bosiladi. Uning muallifi Abdurahmon Sa‘diy adib ijodini batafsil tekshiradi va shoirni qisqa bir ta‘rif bilan “u yonadur va yondiradur” deb ta‘riflaydi. Taqriz va maqola e‘lon qilgan mualliflar adibning yutuqlari bilan birga kamchilik va nuqsonlarini ham yoritgan edilar, ikki maqolada bir nuqson ta‘kidlanadiki, aynan shu nuqsonlar keyinchalik Cho‘lpon ijodini qoralashga yetarlicha asos bo‘ladi. Abdurahmon Sa‘diy yozadi: “Cho‘lpon omma-xalq shoiri

emas, o‘qimishlilar ,ziyolilar shoiridir.Uni omma - jalpi xalq tez anglaydi. Lekin shuning barobarinda,u xalq qayg‘usi bilan ( faqat hech bir sinfga ayirmasdan ) yozg‘uvchi “xalqchi ” bir shoirdir. Cho‘lponda asl ko‘zga qattig‘ berilib turg‘on xususiyat ham shundadir ”. 1923-1924-yillarda “ xalq shoiri emas, ziyolilar shoiri ” degan tasdiq siyosiy ayb sifatida qabul qilinmas edi, ammo keyinchalik bunday takidlar, shoirni gap –so‘zsiz o‘lim chohining labiga olib boradigan dahshatli siyosiy ayblovga aylangan. Shundan keyin Cho‘lpon ijodi munozaralarga sabab bo‘ladi, rasmiy doiralar Ayn- Olim Sharafiddinov va Usmonxonning “ Cho‘lponda sabotlik, mustaqil dunyoga qarash yo‘q, u u shoxdan bu shoxga qo‘nib yuradi, Cho‘lpon taraqqiyotparvar rassom emas, tanazzulparvar xayolparastdir ” degan qarashlarini himoya qiladilar.

Shu tarzda “ madaniyat xodimlari ” ning fatvosi bilan Cho‘lponning yuziga qora tortiladi. 30 yoshlik Cho‘lpon hayotining fojealarga, dramalarga to‘la qora kunlari boshlanadi, u yozgan asarlar chop etilmaydi. Qurultoydan keyin ham adibning to‘plamlari ustida munozaralar davom etadi, ayniqsa, bir tanqidiy maqola e‘lon qilgan muallif borki, uning maqolasidan keyin adib qamoqqa olinadi. Tuyg‘un... Muallif Tuyg‘un 20- yillarning oxirlarida adabiyotga kirib kelgan , o‘rtamiyona yozuvchi, adabiyotda o‘z o‘rnini topa olmagach, sodiq fuqaroga aylanib obro‘ orttirmoqchi bo‘ladi. Maqola muallifi adibning “ Bu o‘lkaning ko‘klami ” she‘ridan parcha keltiradi:

Bu o‘lkaning ko‘klami juda ham namgarchilik,

Quyosh bulutlar bilan o‘ynashadi , shekillik.

Qachon ko‘rsam yashiringan o‘yinqaroq boladay,

Meni entiktirmoqchi o‘ynashib alday-alday.

Oddiy bir o‘lkaning ko‘klami manzarasi, ammo muallif shu manzaradan ham tanqid uchun asos qidiradi: “ Mana, ravshandirki ,Cho‘lpon 1936-yilda hali eski kuylarini chuqurlashtiradi. Hamon ko‘klamda ko‘klamni ko‘rmaydi, o‘zini bulutlar qoplagan holda ko‘radi. “Quyosh ” unga bevafo. Qachon qarasa , uni yashiringan holda ko‘radi, ko‘ngli zoriqadi, entikib qoladi”. Bu o‘rinda tanqidchi “tirnoq ostidan

kir qidirish ” zamirida ish tutadi, chunki bu she’rda adib oddiygina qilib bahor faslini ta’riflaydi. Bizga ma’lumki, bahor faslida havo juda o’zgaruvchan bo’ladi, goho bulutli, goho quyosh ko’rinadi, kutilmagan paytda yomg’ir yog’ib , chaqmoq chaqadi. Nahotki oddiygina tabiat tasviridan ham ayb qidirish mumkin.

Shu o’rinda Belinskiyning bir fikrini aytib o’tishni joiz deb bildik:“ Menimcha, munaqqid hal etishi lozim bo’lgan birinchi va asosiy masala, ushbu asar chindan ham nafismi, ushbu asar muallifi chindan ham shoirmi, shuni aniqlashdan iborat”. [2;236-b]<sup>5</sup>. Bu fikrdan xulosa chiqaradigan bo’lsak, tanqidchi Tuyg’un adabiyot uyining odami emas, balki adabiyotshunos olim Suvon Meli aytganidek “ adabiyot darvozasi atrofida aylanib yurgan kishidir. Albatta, Cho’lponning ijodini yoritishga, uni asossiz ayblovlar zanjiridan bo’shatishga uringan ijodkorlar bor edi. Zamonning zayliga, vaziyatning qaltisligiga qaramasdan adibimiz Cho’lponni oqlashga, uning adabiy merosini tiklashga harakat qilgan ijodkorlardan biri, tanqidchi, adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov edi. 1956-yilga kelib vaziyat biroz yumshagan, surgunda omon qolganlar , oqlanganlar yurtga qaytariladi. Adabiyotshunos olim adib ijodini o’rganar ekan, Cho’lponning binoyidek shoir, hatto o’sha kezlarda kerilib yurgan ancha-muncha shoirlardan zo’rroq ekanligini anglab yetadi. Yozuvchilar uyushmasining yig’inlarida Cho’lponni oqlash kerakligini baralla ayta boshlaydi. 1967-yilda yozilgan “Yillar va yo’llar” maqolasida adib haqidagi fikrlarini batafsil bayon qiladi.

O’zbek adabiyotida Ozod Sharafiddinov Cho’lponni oqlash yo’lida aybdor deb topilayotgan, boshqa tanqidchilar esa Cho’lpon yuziga qora siyoh tortayotgan bir paytda, chet elda adib ijodini chuqur o’rganish yo’lida izlanishlar olib borilayotgan edi. Xorijda Cho’lponning she’riy ijodi bo’yicha eng ko’p yozganlardan biri ,Boymirza Hayit shunday deydi: “ Cho’lponning insonlar qalbini larzaga keltirgan, Turkistondagi milliy uyg’onish tuyg’ularining dil ifodasi bo’lgan “Uyg’onish ”, “Buloqlar ” va “ Tong sirlari ” she’riy to’plamlari uni hech vaqt adabiyot tarixidan o’chirib bo’lmasligidan bir siymo holiga keltirgan. Balki Cho’lpon o’z vaqtida ijodining yuksak pog’onasiga yetgan bo’lavi mumkin”. [1;1-4-s]<sup>6</sup>.

B.Hayit “ Buloqlar ” to‘plamidagi “ Buzilgan o‘lkaga ” she‘rini G‘ayratiyning “Tuzalgan o‘lkaga” she‘ri bilan solishtirib o‘rganadi :

Cho‘lpon : Ey , tog‘lari ko‘klarga salom bergan hur o‘lka,

Nima uchun boshingda quyuc bulut ko‘lanka ?.

G‘ayratiy : Ey, tog‘lari ko‘klarga salom bergan hur o‘lka,

Endi solmas boshing uzra , qora bulut ko‘lanka.

Bu o‘rinda Boymirza Hayit Cho‘lponning “ Buzilgan o‘lkaga ” she‘ri haqiqatga ancha yaqin ekanligini ta‘kidlaydi, G‘ayratiyning “Tuzalgan o‘lkaga” she‘rini esa mafkura tasirida yozilgan she‘r deb ataydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, boshqa davlatlarda rivojlanib borayotgan adabiyotdan bizning bir yoqlama asosga ega bo‘lgan adabiyotimiz ancha orqada qolib ketgan, rivojlanish o‘rniga ijodkorlar bir-birini qoralab, adabiyotni sinfiylikka dahldor tushuncha holiga keltirgan ekan. O. Sharafiddinov ham Cho‘lponni oqlash yo‘lida jiddiy to‘siqlarga duch kelgan bo‘lsada, o‘z fikrida qat‘iy turib izlanishlarini davom ettiradi.

“Menga yana bir g‘oyaviy zarba 1969-yilda berildi –deya yozadi muallif , “ Tirik satrlar ” ning qiyin taqdiri ” nomli maqolasida. “ Tirik satrlar ” ga shoirning 23 ta she‘ri kiritilgan edi, adashmasam, 1967-yilda “ O‘zbek tili va adabiyoti ” jurnalida shoirning 3-4 ta she‘ri bilan “ Sho‘ro hukumati va sanoey nafisa ” degan maqolasi e‘lon qilingandi. Bu esa adibning shoir sifatida ham oqlanganini bildirardi. Kitobning hamma sahifalari bosildi , keyin uning tarqalishiga yo‘l qo‘yildi. Biroq kitob savdo rastalariga yetib bormasdanoq ba‘zi mafkurachilarning g‘azabiga uchradi va man etildi. Menga qilingan nohaqlikdan shuni anglab yetdimki, hamon hamma narsani yuqoridagi odam hal qiladi, adabiyot , ijod erkinligi haqidagi gaplar hamon afsona ekan ”.[7;24-b]<sup>7</sup>.

Muallif bu zarbadan o‘zini yo‘qotib qo‘ymadi. O‘sha paytlarda “ Kecha va kunduz ” romani “ Sharq yulduzi ” jurnalida terib qo‘yilgan holda bir necha marta to‘xtatib qo‘yiladi, biroz vaqtdan keyin yuqoridagilarga ma‘qul keladigan so‘zboshi bilangina bosishga ruxsat beriladi. Bu so‘zboshida ,albatta, “ Cho‘lpon millatchi bo‘lgan ,g‘oyaviy xatolari ko‘p, keyin sovet mafkurasi ta‘sirida o‘zgargan” degan fikr

oldinga suriladi. Bu haqida adabiyotshunos olim shunday yozadi: “ So‘zboshi yozish menga topshirildi, bir vaqtlar men ham aytilgan fikrlar tarafdori edim, lekin endi -1988-yilga kelganda bu fikrlarim o‘zgargan edi. Shunday bo‘lsa-da, romanning e‘lon qilinishini istaganim uchun, o‘sha fikrni markazga qo‘yib so‘zboshi yozdim. Shu tarzda 1988-yilga kelib roman e‘lon qilindi”. [6.238-b] <sup>8</sup>.

Bu fikrlardan ko‘rinib turibdiki, Ozod Sharafiddinov tom ma‘noda yo‘qlikka mahkum etilayotgan Cho‘lponni yuzaga chiqara oldi, Cho‘lpon nomini adabiyotga qayta olib kirdi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin Cho‘lponni oqlash, adib asarlarini yanada chuqur o‘rganish yo‘lidagi dadil qadamlar tashlandi. Respublikamizda yangi ta‘sis etilgan Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofotining Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat bilan birga Cho‘lponga berilishi tashlangan qadamlarning isboti bo‘ldi. Shundan keyin “ Xazina ” ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi adibning uch jildlik “Asarlar” ini va “ Cho‘lpon dunyosi ” degan tadqiqotlar kitobini nashrga tayyorladi. Bugungi kunga kelib Cho‘lpon nomi, uning ijodi adabiyotimiz vakillarining qalbida adabiyotga mehr uyg‘ota oldi, dadil qadam tashlashga, hur fikrni ravon aytishga asos bo‘lib xizmat qildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.**

1. Boymirza Hayit .Turkiston yangi adabiyotida Ikki siymo-Qodiriy va Cho‘lpon. Jurnal . Islom dunyosi.1964.1-4-son.
2. Belinskiy.V.G. Adabiy orzular.G‘afur G‘ulom nashriyoti.1977.236-b.
3. Dilmurod Quronov .Cho‘lpon nasri poetikasi . Sharq nashriyoti. Toshkent . 2004.
4. Ravshanov E . Cho‘lpon . Jahon adabiyoti jurnali .2010. 10-son.
5. Vadud Mahmud. Buloqlar.So‘z boshi.Turkiston gazetasi.1923.10-dekabr.
6. Sharafiddinov O . Cho‘lponni anglash. Sharq . Toshkent . 2019.
7. Sharafiddinov O. Adabiyot yashasa-millat yashar. Sharq.Toshkent.2016.
8. Cho‘lpon . Adabiyot nadur?. Toshkent. 1994. 35-36-b.